

**A. AVLONIY , M.BEHBUDIY, A.N.FAROBIY, FITRATNING TARBIYA VA  
TA'LIMGA OID QARASHLARI**

Mamatova Xilola Muhiddinovna,

Guliston Davlat Pedagogika Instituti p.f.b.f.d (PhD)

[hilol-777@mail.ru](mailto:hilol-777@mail.ru)

Mardanova Lobar Sanakulovna,

Mirzayeva Nilufar Ulugbek qizi

Guliston Davlat Pedagogika Instituti  
Pedagogika yo'nalishi I bosqich talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qadimgi Sharq allomalarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari , fikr-mulohazalari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim , tarbiya , muhit , oila , komillik , barkamol inson , shaxs , jamiyat..

Ma'lumki yurtimiz o'tmishi uzoq davrlarga borib taqaladi.Inson bor ekan ,albatta uni tarbiya qilish lozim.Insonlar hayvonot dunyosidan aql-zakovati,o'z harakati uchun o'zi javobgar bo'lishi va ,albatta, tarbiyasi bilan ustundir.Yosh avlodni tarbiyalash har vaqt va har qachon muhim masalalardan biri hisoblangan.Bugungi kunda insonni komil, yetuk qilib tarbiyalash muhim talablardan bo'lib , zamon shiddati XXI asr axborot asriga aylangani bois , tarbiya borasidagi salbiy o'zgarishlarga ko'proq ta'sir etmoqda .Demak, savol tug'ilishi tabiiy. Komil , yetuk inson deganda nima tushuniladi?yoki Komil inson bo'lish uchun inson qanday fazilatlarni o'zida mujassam etishi kerak bo'ladi?Bu savolga har bir kishi o'z dunyoqarashi , fikrlash doirasidan kelib chiqqan holda javob beradi.

Bizning nazdimizda , Komil inson – ham ma'naviy, ham jismoniy, ham yetuk , barkamol; o'z nafsi jilovlay oladigan , nafs deganda faqat yeyish –ichish emas, balki xulq-atvordagi nafsi jilovlay oladigan (intizomi,irodasi)halol rizqli,aytayotgan so'ziga e'tiborli ya'ni hech kimni ko'ngliga og'ir botadigan so'zlarni aytmaydigan ,vijdonli, sabotli,qo'li mehnatda –qalbi Allohdha bo'lgan kishilarni tushunishimiz mumkin.Bilamizki, komil inson deganda xayolimizga birinchi bo'lib Alisher Navoiyning „Farhod va Shirin” dostonida Farhod obrazi kelishi tabiiy .Va yana shuni aytishimiz lozimki,komil inson timsoli faqatgina Navoiy asarlarida emas ,balki ulug' mutafakkirlarimiz ya'ni Abu Nasr Farobiy,Abu Ali Ibn Sino ,Abu Rayhon Beruniy,Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy ,Abulqosim Firdavsiy kabi ajdodlarimiz asarlari ,pedagogik qarashlari ,qaysidir ma'noda xalq og'zaki ijodi namunalarida ham ko'rishimiz mumkin.

A.Avloniyning<sup>6</sup> “Tarbiya biz uchun yo hayot –yo mamot,yo najot –yo halokat ,yo saodat –yo falokat masalasidur” degan so'zları tarbiyaga berilgan eng go'zal ta'riflardan biri „,Turkiy guliston yoxud axloq “asari esa insonni komil inson bo'lib yetishishida pandnoma va xulq-atvor qoidalari yig'indisi - desak hech ham adashmaymiz.Ushbu asarda tarbiya haqida juda chiroyli fikrlar keltirilgan ya'ni aytildiki:

“Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur.Bu savolga birinchi uy tarbiyasi.Bu ona vazifasidur.Ikkinci - maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur “ – deb javob bersak,bir kishi deydurki”Qaysi onalarni aytursiz,

<sup>6</sup> Abdulla Avloniy “She'rlar,pedagogik asarlar,drama, maqolalar va sayohatnoma”. – Toshkent:”Zabarjad Media”, 2022

<sup>7</sup> “Turkiy guliston yoxud axloq”.”Tarbiyaning zamoni'mavzusi,4-bet.



bilimsiz,boshi paxmoq,qo'li to'qmoq onalarmi ?O'zlarida yo'q tarbiyani qanday olib beradilar" der.....Mana bu so'z kishining yuragini ezar, bag'rini yondurar.Otasiga nima dersiz , desak ,qaysi ota ,to'ychi ,uloqchi ,bazmchi,do'mbirachi,karnaychi, ilm qadrini bilmaydigan ,ilm uchun bir pulni ko'zi qiymaydigan , zamondan xabarsiz otalarni aytasizmi ?Xayr bo'lmasa ,muallimchi desak „Qaysi muallim ?Maqsadi pul ,maslagi shuhrat ,usuli ta'lim ko'rmagan muallimni aytursizmi? degan fikrlar keltiriladi.

<sup>8</sup>M.Behbudiya ta'lim –tarbiyada muvaffaqiyatlarga erishishning birdan bir yo'li o'lkada ilm –fanni rivojlantirish ekanini aytadi.Behbudiya ta'lim –tarbiya ishini ijtimoiy hayot , jahon miqyosida sodir bo'layotgan voqealar bilan bog'liq holda olib borishni talab etadi . U yoshlar tarbiyasida oila ,ota –onalar alohida mavqega ega ekanini ta'kidlaydi .U „Padarkush” asarida „Bislarni xonavayron... bevatan va banda qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdir ,bevatanlik, darbadarlik ,asorat ,faqirlik zarurat va betarbiyalikning mevasi va natijasidir” deb yozadi

Demak ta'lim –tarbiya ishlarini yoshlargina emas ,kattalar o'rtasida ham olib borish kerak .Bundan M.Behbudiya va A.Avloniyning ta'lim –tarbiya borasidagi qarashlari bir-biriga o'xshashligini ko'rishimiz mumkin .

<sup>9</sup>H.Hakimzoda .Niyoziy o'z pedagogik qarashlarida oila muhitida bolani tarbiyalash masalasi alohida o'rinda turadi.H.H.Niyoziy bola barkamol inson ,go'zal axloqli bo'lib yetishishi uchun oilada sog'lom muhit ,tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak .Shunda oilada bola axloqli ,go'zal xulqli ,jamiyatga ,xalqqa munosib farzand bo'lib yetishishida,-deb ta'kidlaydi

<sup>10</sup>M.Abdurashidxonov fikricha yosh avlodni tarbiyalash bilangina millatni uyg'otish ,Vatanni ozod qilish ,xalq ma'naviyatini yuksaltirish turmushni farovonlashtirish mumkin . Adib yoshligidan bolalarda mehnatga qiziqish,g'ayrat,jasorat fazilatlarini tarbiyalashni tavsiya etadi. Z.Furqatning ilm –ma'rifat ,ta'lim –tarbiya, ilg'or pedagogic tajribalarni o'rganish ,ta'lim –tarbiyada ongli intizom ,ta'lim metodlari ,ta'lim ko'rgazmalilik bo'lishi ,aqliy va axloqiy tarbiya,tarbiyada samimiylilik ,odamlar orasida samimiylilik ,ahillik bo'lishi ,vatanparvarlik haqidagi fikrlar I hozirgi davrda ham ijobiy ahamiyatga ega .

Abu Nasr Farobiya ta'lim – tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat –deb biladi.

<sup>11</sup>Konfutsiy ta'limotida asosan ,ota-onaga va davlat boshliqlariga nisbatan izzat –hurmat ko'rsatish .Ideal insonlar orzu qiladigan eng yaxshi ajmiyat qurishga yo'naltirilgan har qanday faoliyat „li- taomil” tushunchasini to'ldiradi .Konfutsiy nazaridagi bunday ideal jamiyatni Farobiya „fozil jamiyat” –deb ta'riflaydi .Bu jamiyat ahli fazilatli ,o'tkir mulohazali foydali ishlarga berilgan ,iqtidorli -bo'ladilar deydi .

<sup>12</sup>Abu Nasr Farobiya ta'lim –tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergen olim sanaladi.Ta'lim degan so'z insonga o'qitish , tushuntirish asosuda bilim bersih ,tarbiya –nazariy fazilatni ,ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq me'yorlari va amaliy malakalarni o'rganishdir,deydi olim.

<sup>13</sup>„Tarbiya” so'zi arabcha „robba” fe'lidan olingen bo'lib , „rioya oldi” ,rahbarlik qildi “ va „isloh qildi “ degan ma'nolarni bildiradi .Bizning nazdimizda ham ulug' ajdodlarimiz fikr va qarashlariga mutlaq to'g'ri.Ta'limni biz turli nazariyalar orqali o'zlashtiramiz ,ustoz va

<sup>8</sup> A.Zunnunov "Pedagogika tarixi" Sharq Nashriyoti T – 2002.91-92 betlar.

<sup>9</sup> A .Zunnunov "Pedagogika tarixi" Sharq Nashriyoti T- 2002.95-bet.

<sup>10</sup> A.zunnunov "Pedagogika tarixi" Sharq Nashriyoti T-2002.89-90.81-betlar.

<sup>11</sup> Konfutsiy "HIKMATLARI"Yoshlar Nashriyot uyi,Toshkent - -2019.

<sup>12</sup> S.Nishonova.Toshkent – Istiqlol 2003.

<sup>13</sup>.Cyberleninka.ru Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.Baxtiyor oila.T.:”Hilol nashr” 2013 y.



murabbiylar qo'llaridan kelgancha biz yosh avlodga turli xil metodlar orqali tushuntirishadi,bilim berishadi .Ammo tarbiyada esa ma'lum bir metod yo'q . Bilamizki tarbiya avvalo oilada, mahalla ,ko'cha –ko'yda ,o'quv faoliyati, ish faoliyatida o'z aksini topadi .Inson mana shu jarayonlardan o'tar ekan ,tarbiyalanib ,o'z kamchiliklarini to'g'rilib boradi.

<sup>14</sup>Shaxs rivojlanishida 4ta muhim omil bor:1) Irsiyat (biologik omil ).2) muhit (ijtimoiy omil ) 3) Ta'lif va tarbiya 4)faoliyat va faollik .Endi shu 4ta omilga birma bir to'xtalib o'tsak .

Shaxs rivojlanishida irsiyat .(biologik omil).Inson hayotda yashar ekan u nimagadir qiziqadi,bor iste'dodini ko'rsatadi .Alloh har bir insonga qandaydir bir aql-u zakovat ,o'ziga yarasha iqtidor iste'dod ,xulq –atvorlar barchasi gen orqali onadan bolaga o'tadi . Kishilar biror kishini iste'dod ,iqtidor borligini bilsa :,Qonida bor ,otasi ham shunday edi (yoki onasi ham shunday edi ) deydi Mana bu shaxs rivojlanishida irsiyat roli qay darajada ekanliginining yorqin misoli.

Shaxs rivojlanishida muhit.Muhit deganda bиринчи navbatda oila ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.Yuqorida H.H.Niyoziyini tarbiya avvalouyda berilishi lozimligini keltirib o'tgan edik.Bundan tashqari muhit deyilganda do'stlar davrasi , iga yaqinlar davrasi, ish joyida o'zaro muhit ham tushuniladi va aynan mana shu "davralar" insonni yo rivojlanishi uchun zamin yaratadi yoki jar yoqasiga yetaklaydi.

Shaxs rivojlanishida ta'lif –tarbiya.

Inson dunyoga kelar ekan o'z oldiga maqsad qo'yadi,o'sha maqsad tomon bilan harakat qiladi,, bardosh,iroda bilan harakat qiladi .Ta'lif –tarbiya bo'lmasa inson jamiyatga keraksiz bo'lishi , manqurtga aylanib qolishi turgan gap ..SHaxs rivojlanishida faoliyat –faollik .Hech bir inson o'z orzu- niyatlariga harakat,mashaqqatsiz erishgan emas . Ta'lif va tarbiyada ham shunday . Inson yuksak natijalarga erishyaptimi ,demak,u tinmay izlanishda ,tinmay mehnatda ,harakatda , doimo faollikda ,o'z ustida ishlashidadir

<sup>15</sup>Sh.Mirziyoyev ;" Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish ,ularning qalbiga qulq solish , dardini bilish , muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifani amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz ,,- deb ta'kidlaydi,

Xulosa qiladigan bo'lsak ,yuqorida ulug' mutafakkirlarimiz ,buyuk ajdodlarimizning ta'lif –tarbiya haqidagi qarashlarini ko'rib chiqdik .Tarbiya haqiqatdan ham amaliy jarayonlar tarkibida insonda yanada rivoj topadi. Ta'lif va tarbiya bir biri bilan uzviy bog'liq ekan ,demak tarbiya bor joyda ta'lif ham insonni barkamollikka ,komillikka yetaklaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdulla Avloniy "She'rlar , pedagogic asarlar , drama , maqolalar va sayohatnoma" . – Toshkent :"Zabarjad-Media",
2. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq"asari "Tarbiyaning zamoni " 4-7 betlar
3. A.Zunnunov "Pedagogika tarixi" - Sharq Nashriyoti Toshkent :-2002.81,89-90,91,95-betlar.
4. Sanobar Nishonova "Komil inson tarbiyasi" .Toshkent – Istiqlol -2003.130-bet.
5. Konfutsiy "HIKMATLAR" I (Lun Yuy) "Yoshlar Nashriyot uyi .Toshkent - 2019.8-bet.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ."Baxtiyor oila" T.: "Hilol nashr" 2013 y. cyberleninka.ru

<sup>14</sup> <http://portal.guldu.uz>



LORACHEVSKY  
UNIVERSITY

